



DAVLAT VA SHAXSLAR MULKIGA KIBERJINOYATLAR HUJUMINING HUQUQIY OQIBATLARI VA SUBYEKTIV BELGILARI

Mirzayev Giyosbek

“Xalqaro huquq va inson huquqlari” kafedrası o‘qituvchisi

Toshkent davlat yuridik universiteti

E-mail: giyosbek.mirzayev91@mail.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10571079>

ARTICLE INFO

Received: 18th January 2024

Accepted: 25th January 2024

Online: 26th January 2024

KEY WORDS

Kiberjinoyat, kiber hujumlar, maxsus kod, bank plastik kartasi, subyektiv belgisi, kvalifikatsiya.

ABSTRACT

Mazkur maqola orqali davlat va shaxslar mulkiga kiberjinoyatlar hujumining huquqiy oqibatlari va subyektiv belgilari tushunchasi, kiberjinoyatlar bugungi kundagi ko‘lami, kompyuter texnologiyalarning rivojlanish va sohalarni raqamlashtirish masalalari, o‘zgarlar mulkini talon-toroj qilish, bank kartalaridagi pullarini aldov yo‘llari bilan o‘zlashtirish holatlari, kiberjinoyatga qarshi kurashish samaradorligini tizimli yo‘lga qo‘yish masalalari ochib beriladi.

So‘nggi yillarda ommaviy axborot vositalarida “**kiberjinoyat**” tushunchasiga borgan sari ko‘proq duch kelayapmiz. Xattoki, bu borada hujjatli filmlar ham yaratilmoqda. Chunki ijtimoiy munosabatlar o‘zgarishi bilan yangi munosabatlar yuzaga kelishi tabiiy holdir. **Kiberjinoyat** — kompyuter va tarmoqning birgalikdagi aloqasi ostida sodir etiluvchi jinoyat turi. Kompyuter jinoyat paytida maqsadli yo‘naltirilgan qurol vazifasini bajarib beradi. Kiberjinoyat kimningdir xavfsizligi va moliyaviy saviyasiga zarar yetkazish maqsadida sodir etiladi. Maxfiy ma‘lumotlar qonuniy tarzda himoyalangan holatda yuz beruvchi kiberjinoyatlar bilan bog‘liq ko‘pgina jinoyatlar mavjud. Xalqaro miqyosda hukumat ham, nodavlat subyektlar ham kiberjinoyatlar jumladan, josuslik, moliyaviy o‘g‘irlik va boshqa transchegaraviy jinoyatlar bilan shug‘ullanadi. Xalqaro chegaralarni kesib o‘tuvchi va kamida bitta milliy davlatning xatti-harakatlarini o‘z ichiga olgan kiberjinoyatlar ba‘zan kiberurush deb ataladi.

Uorren Baffet kiberjinoyatni “Insoniyatning birinchi raqamli muammosi” deb ta‘riflaydi va “Insoniyat uchun real xavf tug‘diradi”, deya qo‘shimcha qilib o‘tadi.

Kiberjinoyatga qarshi kurashish samaradorligini tizimli yo‘lga qo‘yish har bir davlatning oldida turgan dorzarb muammolardan biridir. Zotan, bugungi kunda har qanday sohani axborot, aloqa, savdo-sanoat, bank va birja operatsiyalari hamda boshqa faoliyat turlarini kompyuterlarsiz tasavvur etish mushkul masala hisoblanadi. Hozirgi kunda jamiyatning barcha muhim funksiya va vazifalari u yoki bu darajada kompyuter, internet tarmoqlari va axborot tizimlariga bog‘liq. Ayniqsa, kompyuterlarning moliya-iqtisod sohasiga ta‘siri kundan kunga kuchayib bormoqda.



Vaholangki, davlat va shaxslar mulkiga kiberjinoyatlar tajavuzining huquqiy oqibatlari davlatlarning milliy qonunchiligi doirasida javobgarlikka tortish masalasi turli xil darajada hal qilingan. Ammo alohida kiberjinoyat degan modda bizning amaldagi Jinoyat kodeksimizda ham yo'q. Shunda bir savol tug'ilishi mumkin. Agar jinoyat qonunchiligimizda bu kabi jinoyat uchun javobgarlikka tortishni belgilovchi modda bo'lmasa, jinoyatchini qanday javobgarlikka tortish mumkin? Bizning jinoyat kodeksimizda kiberjinoyat uchun alohida modda kiritilmagan bo'lsada, bu jinoyatning motiv va maqsadi, uning keltirib chiqargan oqibatlari uchun javobgarlik aniq belgilangan. Xususan, Jinoyat kodeksining iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar deb nomlangan uchinchi bo'lim X bobi O'zgarlar mulkini talon-toroj qilishga ajratilgan. Unda: 167-modda O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, 168-modda Firibgarlik va 169-modda O'g'rilik kabi jinoyatlari belgilangan. Ushbu uch jinoyatlar kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etish yoxud qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) axborot tizimiga kirib yoki undan foydalanib sodir etishlar kiber hujum va kiberjinoyat hisoblanadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi yangi "**Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar**" deb nomlangan **XX¹ bob** kiritilib 278¹ -, 278² -, 278³ -, 278⁴ -, 278⁵ -, 278⁶ -, 278⁷-moddalar bilan to'ldirildi. Mazkur moddalar jinoyatchining harakatlariga va sodir etgan jinoyatida foydalangan vositalarga huquqiy baho bergan holatda qo'shimcha kvalifikatsiya qilinadi.

Kiberjinoyatchilar bunday jinoyatlarini birdaniga amalga oshira olmaydi. Bunga uzoq vaqt davomida bir guruh bo'lib oldindan tayyorgarlik ko'rgan holatda bajarishadi. Eng e'tiborlisi ular axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan yuqori darajada bilim va ko'nikmalarga ega shaxslar hisoblanadi.

Shuning uchun ular jinoiy rejalarini qaysi hududda, qachon va qanday uslublarda qanday vositalar yordamida amalga oshirishini puxta tuzadi. Bundan tashqari ular davlat va shaxslarning plastik karta va hisob raqamlaridagi mablag'larga nisbatan kiber hujumni amalga oshirishni belgilab olishadi. Albatta bu kabi usullar jinoyatchilarni jinoiy rejalarini amalga oshirish uchun tanlangan yo'l desak ham bo'ladi.

Xo'sh! kiberjinoyatlar qanday uslublarda sodir bo'lmoqda? Kiberjinoyatchilar asosan aholining ishonuvchanligidan, soddaligidan foydalanib, fuqarolarni turli yo'llar bilan aldaydi va telefonlarga kelgan hech kimga berilmaslik haqida ogohlantirish SMS xabari bilan birga keladigan "**maxsus kod**" raqamlarini egallab oladi.

✓ Masalan, telefonda rusiyazabon shaxs o'zini **bank yoki mobil to'lov tizimi xodimi deb tanishtirishi** mumkin. U fuqaroning bank plastik kartasiga xakkerlar tomonidan kiberhujum uyushtirayotgani va shunga o'xshash boshqa yolg'on ma'lumotlarni aytib ishontiradi. Keyin uning kartasi haqidagi ma'lumotlarni olib, pullarni o'zlashtiradi. Bu holat asosan plastik kartalarga pul tushgan kundan boshlab faollashadi.

✓ **Bank yoki mobil to'lov tizimlarining soxtalashtirilgan saytlari** orqali "Foizsiz onlayn kredit" va shunga o'xshash odamlarga qiziq (feyk) xabarlar Telegram, Instagram va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlardan turli havolalar kela boshlaydi.

✓ Jinoyatchilar **OLX platformasida** yoki telegram ijtimoiy tarmoqlarida yuridik manzili va boshqa ma'lumotlarsiz maxsus guruhlar ochib uyali telefon apparati, dam olish maskanlari



yoki boshqa buyumlarni musodara tovarlar deb arzon narxlarda savdoga qo'yish orqali fuqarolarning qiziqishini uyg'otishi mumkin.

- ✓ Internet do'konlarining **soxtalashtirilgan ilovalarida** fuqarolarni aldov yo'li bilan ro'yxatdan o'tkazish ham hozirgi jinoyat usullaridan biri hisoblanadi.
- ✓ **Davlat tomonidan moddiy yordam puli berilayotgani** haqida ijtimoiy tarmoqlarda xabar kela boshlaydi. Hozirda prezidentning soxtalashtirilgan saytlari orqali fuqarolarni "chuv tushirish" ommalashmoqda. Misol uchun "Davlat tomonidan pul ajratilmoqda", har xil aksiyalar va shu kabi mazmundagi xabarlarining havolalariga (link, ssilka) kirmasliklari tavsiya etildi.
- ✓ Ijtimoiy tarmoqlarda **o'zini treyderlik bilan shug'ullanuvchi shaxs deb tanishtirib**, pul mablag'larini ikki va undan ortiq barovar ko'paytirib berish haqidagi aldovlari bilan fuqarolarning ishonchiga kirish orqali ularning pullari o'zlashtirilmoqda.
- ✓ **PUBG, WORLD OF TANK internet o'yinlarida kuchaytirilgan akkaunt**ni savdoga qo'yish bilan yoshlarning ishonchiga kirayotganlar ham mavjud.
- ✓ **Ijtimoiy tarmoqlarda "arzon tilla buyumlar sotilishi to'g'risida"gi yolg'on e'lonlarni** qo'yish orqali fuqarolarning ishonchiga kirib, ularning mablag'larini o'zlashtirmoqda.

Kiberjinoyatlar hujumining huquqiy oqibatlar. Xususan, 2022-yil Toshkent shahrida fuqarolarning bank kartalaridagi pullarini aldov yo'llari bilan o'zlashtirish holatlari keskin oshdi. 2022-yilda bunday kiberjinoyatlar oqibatida toshkentliklar kamida 45,2 mlrd so'm zarar ko'rgan. Bu pullarning bor-yo'g'i 9,2 mlrd so'mga yaqini undirib berilgan. Qolgan summalarni esa o'zlashtirgan subyektlarini aniqlashni imkoni bo'lmaganligi sababli undirib berilmagan. 2022 yilda Toshkentda axborot texnologiyalari yordamida 4332 ta yoki 2021 yilga (2281 ta) nisbatan qariyb 2 baravar, 2020 yil bilan (106 ta) taqqoslaganda esa 40 baravar ko'p kiberjinoyat sodir etildi.

O'zbekistonda 2023-yilning 11 oyida 5,5 mingta kiberjinoyat sodir etildi, shundan 70 foizi bank kartalari bilan bog'liq firibgarlik va o'g'rilik jinoyatlaridir.

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash joizki, 2023 yil 11-noyabrda ayrim O'zbekiston fuqarolarining bank kartalaridan katta miqdorda pul yechib olingan. Noma'lum shaxslar SMS kodlar himoyasini chetlab o'tgan. Humo to'lov tizimi va Markaziy bank esa hech qanday kiber hujum bo'lmaganini bildirgan. Biroq, 2022 yilda Davr bank plastik kartalaridan fuqarolarning oylik maoshlarini yechib olish holatlari juda ko'p yuz berdi. Albatta barcha kiber hujumlarning tagida moliyaviy maqsadlar yotibdi. Ayrim fuqarolarning bank plastik kartasidagi pullarni yechilgan bo'lsa, ayrim banklarning serverlarini buzib kirib hisob raqamlaridan milliardlab summalarni yechib olish holatlari ham kuzatildi.

Kiberjinoyatlar hujumining subyektiv belgilarini tahlil qiladigan bo'lsak. Bugungi huquqiy demokratik davlatlarda tergov organlari tomonidan jinoyatlarni to'g'ri baholash va kvalifikatsiya qilishda xatoga yo'l qo'ymaslik uchun jinoyatning subyektiv tomonini chuqur tadqiq etish lozim hisoblanadi. Chunki ayrim holatlarda aybning shakli to'g'risida noto'g'ri xulosa qilish, jinoyatning motivi va maqsadini aniqlashda xatoga yo'l qo'yish sababli qilmishni noto'g'ri kvalifikatsiya qilish, shuningdek huquqbuzar aybining darajasiga nomuvofiq jazo tayinlash hollari amaliyotda ko'plab uchrab turadi. Bu esa o'z navbatida jinoyat sodir etgan shaxsning huquqlariga bir muncha zarar yetkazishi mumkin. Jazo tayinlash uchun shaxsning



haqiqatda huquqqa xilof qilmish sodir etganligi shuningdek shaxs aybli ravishda harakat qilganligini aniqlash juda muhim jihatlardan sanaladi. Ushbu holatda shaxsni o'zining huquqqa xilof xulq-atvori va uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabatini aniqlash zarurligi kelib chiqadi. Shaxsning sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan ruhiy munosabatini bildiradigan asosiy belgilar jinoyatning subyektiv tomonining mazmunini tashkil etadi. Jinoyatning subyektiv tomoni haqida so'z borganda, M.H. Rustamboyev "jinoyat qonunida belgilangan aybdor shaxsning o'z qilmishi va oqibatlariga ruhiy munosabatini bildiruvchi belgilar yig'indisi tushuniladi"¹ deb ta'kidlaydi.

M.Usmonaliyev "jinoyatning subyektiv tomoni jinoiy javobgarlikni asoslantirish, jinoyatni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega"², deb ta'kidlaydi.

Eng avvalo shaxsni jinoiy jazoga tortish uchun aybning mavjudligi zarur hisoblanadi. Ushbu jihatni ko'pchilik olimlar ta'kidlab o'tgan. V.A. Nersesyan aytganidek "Aybni psixologik mazmuni shaxsni ongi va ifodasining muayyan holatini o'z ichiga olib, ayb shaklining qonun bilan belgilangan shakli - qasd va ehtiyotsizlikda o'z ifodasini topadi"³.

Ushbu fikrga A.I. Plotnikov: "Psixologik nazariya nuqtai nazaridan jinoyat sodir etgan shaxsning ongida kechadigan asosiy psixologik komponentlar bilan muvofiq keluvchi psixologik jarayon sifatida ko'rinadi"⁴ deb qo'shimcha qilgan.

Jinoyat tarkibining subyektiv tomoni mazmunan faqat ayb bilan emas, balki ham motiv, ham maqsad bilan belgilanadi.

P.S. Dagekning fikriga ko'ra: "Motiv va maqsad - har qanday ongli irodaviy nojo'ya harakatning zaruriy belgisidir. Shuning uchun ham qasddan ham ehtiyotsizlikdan sodir etilayotgan jinoyatlarning ko'pchilik qismi shaxsning ongli irodaviy harakatlardan nomoyon bo'larkan, motiv va maqsad - bu jinoyatlarning zaruriy tarkibiy qismlari bo'ladi"⁵.

"Motivlarni bilmasdan turib, - deb ta'kidlaydi M.B. Teplov, - nima uchun shaxs bir maqsadga emas, boshqa maqsadga intilayotganligini tushunish mumkin emas, demak, uni harakatlarining haqiqiy ma'nosini anglab bo'lmaydi"⁶.

G.S. Sarkisov: "Jinoyat motivi - ijtimoiy xavfli va jinoiy jazoga sazovor bo'lgan qilmishni sodir etishga undaydigan talablar, manfaatlar ta'siri ostida shakllangan subyektiv shaxsning kriminogen xossalari, u mavjud bo'lgan obyektiv vaziyat ko'rinishidagi xulq atvorni ruhiy tartibga solish elementlardan biridir. Jinoyat maqsadi ham hulq-atvorni tartibga soluvchi element bo'lib, motivga muvofiq keluvchi va erishish maqsadida sodir etiladigan qilmishning subyektiv tomonidan hayolan tasavvur qilinadigan hamda istagan natijasining "modeli" ko'rinishida namoyon bo'ladi. Agar jinoyat motivi rag'batlantirsa, maqsad - subyektivni aynan o'sha natijaga erishishga yo'naltiradi uning mazmuni, mohiyatini tashkil etadi"⁷.

Ko'p hollarda o'zgarlar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-taroj qilish jinoyatining motivi va maqsadi g'araz niyatlar, moddiy manfaatdorlik, g'ayriqonuniy yo'l bilan

¹ Rustamboyev M.H. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. (Умумий қисм). –Т.: ИLM ZIYO, 2006. -118-120 бетлар.

² Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. (Умумий қисм). Т.: Янги аср авлоди, 2005.-94-195 б.

³ В.А. Нерсесян. Неосторожная вина: проблемы и решения//Государство и право, 2000, № 4. – С. 59.

⁴ См.: Плотников А.И. Объективное и субъективное в уголовном праве (Оценка преступления по юридическим признакам.) – Оренбург 1997. – С. 79.

⁵ Дажель П.С. Уголовно-правовое значение мотива и цели преступления// Социалистическая законность, 1966, № 5. – С. 41.

⁶ Теплов Б.М. Психология. – М., 1949. – С. 178.

⁷ Саркисов Г.С. Мотив и цель преступления// Советское государство и право, 1979, № 3. – С. 78-83.



boyish kabi maqsadlarda sodir etilayotgan kiberjinoyat sanaladi. Shuningdek, har qanday qasddan sodir etilgan jinoyat qandaydir motiv va u yoki bu maqsadda sodir etiladi. Motiv va maqsadning ijtimoiy va kriminologik ahamiyati shundan iborat bo'ladi. Jinoyat motivi va u belgilaydigan maqsad ko'proq bir-biriga to'g'ri keladi. Talon-toroj qilishda g'arazli motiv va g'arazli maqsad mavjud bo'ladi. Talon-torojning subyektiv tomoni to'g'ri qasd bilan va g'araz maqsadlarda sodir etiladi. Ayblanuvchi, o'zganing mulkini o'zi yoki uchinchi shaxsning foydasiga bepul va g'ayriqonuniy ravishda egallayotganini anglaydi. Talon-torojda g'araz maqsad ayblanuvchi yoki boshqa shaxslar foydasiga o'zganing mulkini olishga bo'lgan intilishida ifodalanadi. G'araz maqsadning yo'qligi qilmishni talon-toroj sifatida tasniflashni inkor etadi.

Jinoyat qonunchiligida aybdorning o'z qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabati xarakteriga ko'ra, jinoyat tarkibining subyektiv tomoni o'z ichiga ayb, motiv, maqsad va his-tuyg'u kabi belgilarni oladi. Ta'kidlash joizki, jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda jinoyat subyektiv tomonining mazmuni quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- subyektiv tomon har qanday jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi. Uning mavjud emasligi esa, qilmishning jinoyatligini istisno etadi;
- jinoyat tarkibidagi barcha belgilarni o'z ichiga olgan jinoyatning subyektiv tomonini belgilash sodir etilgan qilmishning to'g'ri va asosli kvalifikatsiya qilinishining majburiy va zaruriy shartidir;
- subyektiv tomonning to'g'ri belgilanishi, obektiv belgilari bo'yicha o'zaro bir-biriga bog'langan jinoyat tarkibini bir-biridan ajratishda yordam beradi;
- subyektiv tomonning tarkibi shaxsning sodir etgan jinoyat qilmishining ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash imkonini beradi.
- jinoyat subyektiv tomonining to'g'ri belgilanishi, jinoyat javobgarlikni va ozodlikdan mahrum etish kabi jazolarni individuallashtirish uchun shart-sharoit hisoblanadi;
- sodir etilgan qilmishning subyektiv tomonini aniq tahlil qilish, jinoyat javobgarlikka olib keladigan ijtimoiy xavfli qilmishni, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazgan bo'lsa ham, jinoyat bo'lmagan qilmishdan ajratib olish imkonini beradi;
- subyektiv tomonni to'g'ri aniqlash - jinoyat huquqining qonuniylik, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik kabi tamoyillarini ta'minlash va mustahkamlashning zaruriy shartidir.

Subyektiv tomondan o'zgaralar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toroj qilish jinoyatini umumiy asoslarda ko'rib chiqadigan bo'lsak, talon-toroj jinoyati g'araz maqsadlarda to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatning subyektiv tomoni o'z harakatlarining g'ayriqonuniylikni anglaydi, o'zgaralar mulkini tekinga qo'lga kiritishni xohlaydi va istaydi. Bu holatda jinoyat sodir etgan shaxsning talon-toroj qilinayotgan mulkning egasi haqidagi noto'g'ri tasavvuri kvalifikatsiyaga ta'sir qilmaydi. G'araz maqsad talon-toroj qilishning zaruriy belgisi hisoblanib, bu aybdorning o'zi uchun yoki boshqa shaxslar uchun moddiy manfaat undirishga bo'lgan urinishidir. Bu holatda beg'araz maqsadda, masalan, o'zganing mulkini kelgusida qaytarib berish maqsadida vaqtincha foydalanish yoki faraz qilingan huquqlar doirasida o'zganing mol-mulkini egallashga qaratilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar o'g'rilik yoki talonchilik jinoyati tarkibini tashkil etmaydi. Jinoyat kodeksining 167-moddasining 3-qismi "g" bandini ko'rib chiqadigan bo'lsak, subyektiv tomondan jinoyat faqat



to'g'ri qasd bilan va g'araz maqsadlarda sodir etiladi. Ya'ni, aybdor o'z harakatlarining noqonuniyligini anglaydi va ular amalga oshirilishini xohlaydi. Aybdorning ushbu jinoyatni sodir etishdagi g'arazli maqsadi subyektiv tomonning zaruriy belgisi hisoblanadi. O'zlashtirish aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini huquqqa xilof, bepul ushlab qolish va keyinchalik mulkdorga yoki bu mulkning boshqa egasiga mulkiy zarar yetkazgan holda o'z foydasiga yoki boshqa shaxslarning foydasiga qaratishda ifodalanuvchi, agar aybdor mazkur mulkni hali sarflamagan yoki begonalashtirishni amalga oshirmagan bo'lsa, talon-torajning bir shakli hisoblanadi. Rastrata qilishda esa aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini mulkdor yoki mulkning boshqa egalariga zarar yetkazgani holda, agar aybdor talon-toraj hodisasi aniqlangan paytga qadar ko'rsatilgan mulkni begonalashtirishni amalga oshirib bo'lgan bo'lsa, o'zining foydasiga yoki boshqa shaxslarning foydasiga g'ayriqonuniy ravishda, tekinga qaratishda ifodalanuvchi talon-torajning bir shakli hisoblanadi. 168-modda 3-qismi "g" bandi subyektiv tomondan firibgarlik to'g'ri qasddan g'araz maqsadga sodir etiladi, g'araz maqsadning mavjudligi firibgarlikning zaruriy belgisi hisoblanadi. Aybdor o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadida jabrlanuvchini chalg'itayotganligini yoki bila turib ishonchini suiiste'mol qilayotganligini anglab yetadi va buning sodir etilishini xohlaydi. Shuningdek, ushbu jinoiy qilmishni aybdor mulkiy foyda olish va boyib ketish maqsadida sodir etadi. G'araz maqsadning mavjudligi firibgarlikning zaruriy alomati hisoblanadi, shu bilan birga, agar mulkni aldash yo'li bilan g'arazli maqsadlarsiz egallagan bo'lsa, qilmishni firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi. "Bu o'rinda o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadi nafaqat mulkiy bitimlarni amalga oshirishdan oldin, balki ularni bajarish jarayonida ham paydo bo'lishi mumkinligi e'tiborga olinishi lozim. Bayon qilinganlardan kelib chiqib, uzrli sabablarga ko'ra qarzni o'z vaqtida qaytarmagan va o'zganing mulkini tekinga qo'lga kiritish maqsadi bo'lmagan shaxsning harakatini firibgarlik deb baholab bo'lmaydi". Mulkni egallashga nisbatan qasdning qachon paydo bo'lgani muhim ahamiyat kasb etadi. Agar aybdorda o'zganing mulkini qo'lga kiritishga nisbatan qasd mulk olingandan keyin paydo bo'lgan bo'lsa, qilmish o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunday jinoyat uchun ushbu moddaning 3-qismida bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum etilgan holda besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq sanksiyalar belgilangan. G'araz maqsadning mavjudligi firibgarlikning zaruriy belgisi hisoblanadi, shu bilan birga, agar mulkni aldash yo'li bilan g'arazli maqsadlarsiz egallagan bo'lsa, qilmishni firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi. Jinoyat Kodeksining 169-moddasi 3-qismi "b" bandi subyektiv tomondan to'g'ri qasd bilan va g'araz maqsadlarda sodir etiladi. Aybdor olingan o'zganing mulkining nafaqat g'ayriqonuniyligini va qaytarib berilmasligini, balki o'z harakatlarining yashirin usullarini ham tushunib etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ushbu jinoyatlar subyektiv tomondan faqat to'g'ri qasddan sodir etiladi. Bunday jinoyatlar uchun mazkur moddaning sanksiyasida besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.



References:

1. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. (Умумий қисм). –Т.: ILM ZIYO, 2006. -118-120 бетлар.
2. Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. (Умумий қисм). Т.: Янги аср авлоди, 2005.-94-195 б.
3. Mirzayev G'iyosbek Isroil o'g'li, O'ZBEKISTON RESPUBLKASINING XALQARO TERRORIZMGA QARSHI KURASH SOHASIDAGI XALQARO-HUQUQIY TASHABBUSLARI, SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI: Vol. 2 No. 2 (2023): SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI.
4. Mirzayev Giyosbek Israil Ugli. (2022). SOCIAL AND LEGAL NATURE OF TODAY'S FAMILY CONFLICTS. International Journal of Law And Criminology, 2(12), 29–34. <https://doi.org/10.37547/ijlc/Volume02Issue12-06>
5. Тиллабоев, Ш. (2022). Имплементация опыта великобритании и европейского союза в сфере защиты персональных данных в законодательство республики узбекистан. *юрист ахборотномаси*, 2(3), 125-130.
6. Mirzayev Giyosbek. (2023). Practical Legal Issues of the Application of the Principle of Non-Interference in the Internal Affairs of States by Subjects of International Law. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 1(5), 16–21.
7. Nurullayev F. ANGLO-SAKSON HUQUQ TIZIMIDA SHARTNOMAVIY MAJBURIYATLARNING O'ZIGA XOS HUQUQIY JIHLTLARI HAMDA QO'LLANILISHIDAGI HUQUQIY MUAMMOLAR //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 132-139.
8. Jaloliddin R. ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF INTERNATIONAL PUBLIC LAW IN PROTECTING INVESTORS: AN EMPIRICAL STUDY //SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 1-2.